

MANZARA JANRINI ISHLASHDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRISH

*Soliyev Jo 'ramurot Otaqulovich¹, Umirova Nilufar Jo 'ramurotovna²,
Egamova Ozoda³*

*¹A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedra o'qituvchisi, ²Jizzah ixtisoslashtirilgan san'at maktabi tasviriy san'at bo'limi etakchi o'qituvchisi, ³Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail: odil.soliev@bk.ru*

Аннотасија: *Мақола манзара жанрида о'қувчиларнинг тushunchasini singdirish va ularning dunyoqarashini rivojlantirish masalalari haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarga manzara ishlash mashg'ulotlari nazariy bilimlarga ega bo'lishi borasida amaliy maslahatlar beriladi.*

Калит со'злар: *манзара, rangtasvir, kompozitsiya, realistic san'at, janr, kolorit, perspektiva, blik.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы усвоения студентами понимания и развития их мировоззрения в жанре пейзажа. Студентам будут даны практические советы о том, как получить теоретические знания в области ландшафтного дизайна.*

Ключевые слов: *пейзаж, живопись, композиция, реалистическое искусство, жанр, цвет, перспектива, блик.*

Annotation. *The article deals with the issues of absorbing students' understanding and developing their worldview in the genre of landscape. Students will be given practical advice on how to gain theoretical knowledge in landscape design.*

Key words: *landscape, painting, composition, realisticheskoe iskusstvo, genre, color, perspective, blik.*

Yosh avlodni har tomonlama garmonik shakllanishida tasviriy faoliyat muxim rol o'ynaydi. Tasviriy san'at yosh bolalarning moddiy olamini kuzatishiga, fikrlashiga, narsalarni shakl va formalarini, rang tuslarini idrok eta olishga o'rgatadi. Ularning estetik va badiiy didini shakllantirishda muxim vosita bo'lib xisoblanadi. Shuningdek, maktabda olib boriladigan tasviriy san'at mashg'ulotlari yosh bolalarni har tomonlama rivojlanishiga, estetik va manaviy jixatdan tarbiyalanishiga, ularda rasm chizish qobiliyati, hamda narsa va hodisalar yuzasidan fikrlash qobiliyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu o'qituvchilar ishining muxim tomoni bo'lib xisoblanadi. Shu boisdan maktab o'qituvchisi har bir tasviriy san'at mashg'ulotlarini puxta, yuksak saviyada, ko'rgazmalar asosda olib borishni taqazo etadi. Buning uchun bugungi kunda

o'qituvchilar tayyorlashda o'rganiladigan tasviriy san'at kursi asosiy o'quv fanlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu kursni o'rganish jarayonida bo'lajak pedagoglarni tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirish, ularni fanning asosiy negizlari va bu faoliyatni yosh avlodga o'rgatish usullari bilan amalga oshiriladi.

6-sinfda manzara janri bo'yicha rasm chizish uchun O'lkamizda bahor mavzuda mashg'ulot olib boriladi.

O'quvchilarning tevarak atrofni kuzatish qobiliyatini, tabiatning turli ko'rinishlarini xis etish, rasm ishlashda ularni o'z o'lkasiga va Vataniga bo'lgan muxabbatini o'stirish darsning asosiy maqsadi bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli rassomlar O'.Tansiqboyev "Paxtani sug'orish", R.Axmedovning "Oqtosh" deb nomlangan tabiat manzaralari.

O'qituvchi tomonidan tayyorlagan to'rt bosqichda ishlangan "O'lkamizda baxor" mavzusidagi rasmlar.



1-rasm. Manzara chizish bosqichlari

Bu mashg'ulotning sifatini yanada yaxshilanishi uchun darsdan oldin maktab yoki yaqin atrofdagi bog'da qisqa vaqtli ekskursiya uyushtirilishi mumkin.

1.Ko'rib turgan bog' haqida nima bilasiz?

2. Mevali va mevasiz daraxtlar to'g'risida fikringiz?
3. Bu daraxtlarning bir-biridan farqi nimada?
4. Yerdagi ekinlar, gullar va bshqa o'simliklar haqida qanday fikrdasiz?
5. Atrofdagi boshqa ko'rinishlarni qanday tasavvur qilasiz?
6. Uzoqlardan ko'rinib turgan tog' manzarasi va dala-dashtlarni ko'ryabsizmi?

7. Bahor faslida barcha o'simliklar uyg'onishi, quyosh nurining ahamiyati haqida bilasizmi?

Shundan so'ng o'simliklarning inson uchun nihoyatda foydali tomonlari haqida qisqa suhbat o'tkaziladi.

Sinf xonasiga kirilgach tashkiliy davr boshlanadi. Bunda o'quvchilarning darsga tayyorgarligini kuzatgan holda bir necha uy ishlari tanlab olinadi. Uy ishlarining qay yo'sinda bajarilganligidan kelib chiqib savollar beriladi, shu tariqa baholanadi.

O'quvchilar diqqati tortilib mavzu bayon etiladi. Ekskursiyada ko'rib kuzatilgan bog'-rog'lar eslatiladi, go'zal tabiatning bahor fasli, yomg'irdan so'ng, osmon tip-tiniq zangori, quyosh charaqlagan, butun borliq yam-yashil tusga kirgan. Barcha o'simliklar qatori bodom, o'rik va boshqa daraxtlar rang-barang gullab tabiat go'zalligiga yanada ko'rk ato etayapti. Gullarning ajoyib yoqimli xidi kishini o'ziga maftun etadi. Ularga bir zum razm solib tursangiz mayin esayotgan bahor shabadasida o'simlik va daraxt novdalarining sekin-asta silkinayotganini ko'rasiz va beixtiyor zavqlanib ketasiz.

Sizda esa ularni qog'ozga aks ettirish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

Mavzuni yanada mustahkamlash uchun hamda o'quvchilar qiziqishini kuchaytirish maqsadida, maxalliy rassomlarning bahor fasliga oid asarlari reproduksiyasidan namunalarni ko'rsatib o'quvchilar bilan birga quyidagi savollar asosida qisqacha taxlil qilinadi.



3. "Qo'shni" R. Ahmedov, 1949.



R. Ahmedov "Qo'tosh"

2 a,b-rasm mavzuga oid rasmlar reproduksiyasi.

1. Bu suratda qaysi faslni ko'rayapsiz?
2. Suratda nima tasvirlangan?
3. Suratda odamlar nima qilishayapti?
4. O'.Tansiqboyevning "Paxtani sug'orish" deb nomlangan asari bilan R.Axmedovning "Oqtosh" nomli manzaralarida qanday farq bor?

5. "Mana bu bahor" deb nomlangan suratga qarang, bu sizga yoqadimi? To'rt bosqichda ishlangan rasm orqali Bahor faslini qanday bo'yash usuli ko'rsatilib o'tiladi. O'quvchilar to'liq tushunchaga ega bo'lgach mustaqil ishga o'tkaziladi. Bu jarayonda o'quvchilar kompozitsiya tuzishida iloji boricha o'chirg'ichdan kam foydalanish, suv ifloslanmasligi uchun xarakat qilish, ishni toza bajarish uchun e'tiborni qaratish, o'qituvchi nazoratida bo'ladi. Mustaqil ish davomida yaxshi ishlangan ayrim ishlar namuna sifatida ko'rsatilib boriladi. Darsning oxirida yaxshi va sifatsiz bajarilgan ishlardan bir nechtasini o'quvchilar bilan quyidagicha savollar asosida tahlil qilinadi.

1. Bu ish sizga yoqadimi?
2. Rasm bahor mavzusida ishlanganmi?
3. Rasmda qanday kamchiliklarni sezyapsiz, ularni tuzatish mumkinmi?
4. Bu ishlarni qanday baholash mumkin?



3-rasm. Bodom gulladi.

Dars yakunlangach uyga vazifa qilib "Bodom gulladi" mavzusida rasm chizib kelish yuklatiladi. Uy vazifasi qisqacha tushuntirib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirasilov S. Tolipov N. Oripova N. Rangtasvir. Toshkent. O'zbekiston, 2006.

2. Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Toshkent. Ilm-Ziyo nashriyoti, 2011.

3. Buyuk didaktika . Akademik S.Rajabov taxriri ostida. O'qituvchi. Toshkent. 1975 y.

4. E.M.Belskaya. Metodika ispolzovaniya mestnogo materiala v prepodavanii botaniki v shkolax Uzbekistana "Uchpedgiz". Tashkent. 1958.

5. Internet saytlari.